

BOSHLANG'ICH SINF OQUVCHILARIGA TINISH BELGILARINING QOLLANILISHINI O'RGATISH.

*Mambetnazarova Gozzal Orazbayevna
Shabatova Rabig'a Janasbay-qizi
A'jiniyoz nomidagi Nukus Davlat
pedagogika Institutining "Boshlang'ich
ta'lif yo'naliishi 3-kurs talabalari.
Qoraqolpog'iston, Nukus*

Annotation: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozishida tinish belgilarini tog'ri ishlata olmaslik sabablari, o'quvchilardan diktant ishi olish paytida vergul va nuqtani tog'ri qoyishni o'rgatish. Punktuaciya-yozuv orasidagi aloqaning muhim vositalaridan biri ekanligini o'quvchilarga tushintirish.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, tinish belgilari, vergul, nuqta, undov, so'roq belgilari.

Kelajak - bu yoshlarning qo'lida, demak, yoshtar ilimli, bilimli bo'lishi shart va zarur. Uning uchun bolalarni boshlang'ich sinfga o'tganidan boshlab tog'ri ta'lif va tarbiya berishimiz lozim. Dastlab o'quvchilarni tog'ri yozishni va ifodali oqishni o'rgatishimiz kerak. Tog'ri yozishda tinish belgileri yani punktuatsiyaning o'rni juda katta.

Punktuatsiya- bu tinish belgilarining tog'ri ishlatilishi haqidagi qoidalar yig'indisi. Punktuatsiya yozuv orasidagi aloqaning muhim vositalaridan biri sanaladi. Boshlang'ich sinflarda asosan to'rtta tinish belgisi o'rgatiladi bular: ga'p oxirida nuqta, so'roq, undov, belgisi hamda uyushiq bo'lakli gaplarda vergulning ishlatilishi haqidagi qoidalar o'rgatiladi va uni koblab hayotiy misollar orqali kengroq tushintirishimiz mumkin. Tinish belgilari asosan muayyan tilda yozma nutqni tog'ri, ifodali, mantiqli bayon qilishda uni ixshamlashta, yozma nutq qismlarining o'zaro mantiqiy grammatik munosabatlarini ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tinish belgilarini o'rgatish, bu bo'yicha ko'nikmalar paydo etish ahamiyatli ishlardan biri. Sababi, tinish belgilarin o'rgatish orqali ularning intonatsiya jihatdan tog'ri gapishtirish, tog'ri yozish ko'nikmalari rivojlanadi. Bolalar maktabga kelib gab bilan ishlashadi, har bir gapning oxiriga nuqta bilan tamomlanadigan solardan boshlab o'rgatiladi. Shuning uchun, eng dastlab bolalar nuqta bilan, undan keyin esa so'roq belgisi bilan tanishadi. Bu faqat amaliy ishning jarayonida ko'rsatilib, gapirganda bir gap ikkinchi gapdan oz pauza bilan bo'linib turadiganligi, tovush ozgina pasangroq aytishini o'qituvchi o'zi ko'rsatadi. Yozishda nuqta belgisi bilan belgilanadi. Bu gapning tamomlanganini ko'rsatadi. Bu

tayyorlangan tizim bo'yicha ko'rsatiladi va o'quvchilarning o'zlariga ayttirib, o'rgatilib boriladi. O'qitish jarayonida o'quvchilar nuqta, so'roq belgisi, ko'p nuqta, vergul, undov belgilari bilan tanishadi. Sodda bir necha topshiriqlardan keyin ularda ko'nikma paydo bolib, ularning ayirmasini tushinib boradi.

Tinish belgilari gap qismlarining o'zaro logik-gramatik munosabatlarini ko'rsatishda muhim grafik vosita sifatida ishlatiladi. Punktuatsiya, bir tomondan yozuvchiga o'z yozma nutqini aniq, to'g'ri va ifodali bayon etish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan, o'quvchiga muayyan matndagi fikrni yozuvchi bayon etganidek, yozuvchining maqsadiga muvofiq tushuna olish imkoniyatini yaratadi. Tinish belgilarining qo'llanilishi gaplarning mazmuni, grammatic qurilishi va ohangiga ko'ra bo'linadi. Ayrim tinish belgilarning qo'llanilishi gapning mazmuni bilan bog'liq bo'ladi. Jumladan: ifodalonmoqchi bo'lgan mazmun tugallangan bo'lsa, nuqta, undov, so'roq belgisi, qo'yiladi. Tugallanmagan yoki izohtalab tushunchalar ko'p nuqta yoki qavslar bilan ifodalaydi.

Nuqta - eng ko'p qo'llanuvchi tinish belgilarining biri. Uning asosiy vazifasi xabar ma'nosini anglatuvchi muayyan bir fikrning (gapning) tugallanganligini ko'rsatishdir. Nuqta-gap oxirida qo'llanuvchi, yakka va qo'sh qo'llanuvchi, bir elementli, ayiruvchi tinish belgisidir. Uning qo'llanishi asosan mantiqiy grammatic printsipga asoslanadi. Masalan: Bog'da chiroyli kapalak gulga qonardi. Siz ilimli kishilarni ulug'lang.

So'roq -biror narsa haqida so'rash maqsadini bildirgan gap so'roq gap deyiladi. So'roq gapning oxiriga so'roq (?) belgisi qo'yiladi. Bu belgi gap oxirida qo'llanuvchi asosiy belgilardan biri hisoblanadi. Uni O'zbek yozuvchisi va drammaturgi Fitrat shunday tariflaydi: (?) So'rash belgisidir. So'rash gaplardan keyin qo'yiladi. Masalan: Gaplar qanday bo'laklardan tuzilgan? Siz paxtani nimaga o'xshatgingiz keladi?

Undov belgisi gap oxirida qo'llanuvchi tinish belgilariga kiradi. Undov belgisi, o'z tuzilishiga ko'ra ikki elementli tinish belgisidir. Undov belgisi badiiy asarlarda (ayniqsa, poeziyada, lirik asarlarda) ko'p qo'llanadi: yozma nutqdagi turli tuyg'ular, holatlar, har xil emotsionalliklarni ifodalashda undov belgisining roli katta. Hozirda undov belgisi takroriy, oddiy va murakkab qo'sha (birgalikda) qo'llanish xususiyatiga ega: undov belgisi bir o'rinda uch martagacha takroriy qo'sha qo'llana oladi. Masalan:- Uyga kirgin, Baxtiyor,

Kech bo'ldi-ku, jon bolam!

Vergul yani tire ko'p funktsiyali, ya'ni qo'llanishning o'ziga xos sharoitiga qarab ham ajratuvchi vazifasini bajara oladi. Vergul gap ichida qo'llaniluvchi, yakka va qo'sh qo'llanuvchi, bir elementli, murakkav vazifali tinish belgisidir. Uning qo'llanishi asosan mantiqiy-grammatic printsipga asoslanadi. Masalan: Men bozordan olma, anor, uzum sotib oldim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarni tinish belgilari bilan tanishtirishda o'qituvchi, avvalo, ularning yozma nutqda ishlatilish o'rnini ko'rsatadi. Tinish belgisi fikrni

to'g'ri, boshqalarga tushunarli qilib ifodalash uchun muhim ekanini tushuntiradi. Masalan, nuqtaning roli bilan elementar tarzda tanishtirish uchun gaplarga ajratilmagan (tinish belgilari qo'yilmagan) yaxlit matn o'qitiladi; o'quvchilar bunday matnni o'qish va mazmuniga tushunish qiyin ekanligiga ishonch hosil qiladilar. Punktuatsiya semantik, sintaktik va intonatsion qoidaga asoslanadi. Bu uch asos bir-biriga o'zaro ta'sir qiladi. Xat yozuvchi tinish belgisini qo'yishda, avvalo, bayon etadigan fikrining mazmuniga asoslanadi. Nutqning mazmun tomoni gapning qurilishiga ham ta'sir qiladi. SHuning uchun o'quvchilarga tinish belgilarining qo'llanilishini o'rgatishda biror gapda tinish belgilarini qo'llashni belgilaydigan semantik-sintaktik tamoyilga asoslaniladi.

1-sinf o'quvchilariga savod o'rgatish davridayoq nuqta, so'roq belgisi va undov belgisi bilan amaliy tanishtiriladi. Bolalar "Alifbe" o'qimasalar ham, rasmga qarab gap tuzadilar. O'qituvchi ularga talaffuzda bir gap boshqasidan to'xtam (pauza) bilan ajratilishini, gapning oxirida ovoz pasayishini tushuntiradi. Bolalar, o'qituvchi topshirig'iga ko'ra, 3-5 gapli kichik matnni gaplarga ajratadilar va ular o'rtasidagi to'xtam (pauza) qilish hikoya mazmunini yaxshi tushunishga yordam berishiga ishonch hosil qiladilar. Ular gapni to'g'ri talaffuz qilishini o'rgana boshlaydilar. Bu gap oxiriga nuqta qo'yilishi bilan tanishtirish uchun mazmuniy va intonatsion asos yaratadi. Bolalarni gapni o'qishga oldindan tayyorlash uchun chizmadan foydalaniladi.

Boshlang'ich sind oquvchilariga quyidagi mazmunda tushuntiriladi:

– Og'zaki nutqda bir gapni ikkinchisidan pauza (to'xtam) bilan ajratamiz (Har bir gapni talaffuz qilib ko'rsatadi). Kitoblarda, gazetalarda gapning tugaganini, ovozni pasaytirish va pauza qilish kerakligini ko'rsatish uchun alohida belgi – nuqta ishlataladi.

Bir necha darsdan so'ng o'quvchilar gaplarni o'qiy boshlaydilar. Ular nuqta pasaytirish, pauza qilishga belgi ekanini tushunadilar. Kesma harflardan gap tuzishda albatta nuqtali kartochkalardan foydalaniladi. O'quvchilar gapni yozganda o'qituvchi nuqta qo'yishni eslatadi, ishni tekshiradi. Gapning oxiriga nuqta qo'yilmasa, xato hisoblanadi. O'quvchilar o'qituvchi yordamida nima uchun nuqta qo'yish lozimligini tushuntiradilar. SHunday yo'l bilan gapning oxiriga nuqta qo'yish ko'nikmasi shakkantiriladi. So'roq va undov belgilari bilan ham savod o'rgatish davridayoq tanishtiriladi. Bolalar so'rash mazmunini bildirgan gaplarni o'qiydilar. O'quvchilar bunday gaplarni ohangga rioya qilgan holda, ya'ni gapning oxirida ovozni ko'tarish bilan o'qishga o'rgatiladi. Gapning mazmuni va intonatsiyasi so'roq belgisini qo'yishni talab etadi. Undov belgisini qo'yishni o'quvchilar gapning his-hayajon ifodalashi va alohida ohangda o'qilishi bilan bog'laydilar.

O'quvchilar 2-sinfda "Gap" bo'limi mavzularini o'rganish jarayonida nuqta, so'roq va undov belgisi haqida nazariy tushunchalar oladilar.

3-sinfda esa tinish belgilari haqidagi nazariy tushunchalar chuqurlashtiriladi. SHu vaqtidan boshlab o'quvchilar gap oxiriga tinish belgilari sintaktik asosda qo'yilishini anglay boshlaydilar. "Darak gap" mavzusini o'rganish bilan bog'liq holda nuqta qo'yilishi, "So'roq gap" mavzusi bilan bog'liq holda so'roq belgisi va "Undov gap" mavzusini o'rganish bilan bog'liq holda undov belgisining qo'yilishi o'rgatiladi.

4-sinfda o'quvchilar "Gapning uyushiq bo'laklari" mavzusi o'rganilganda sanash ohangi bilan bog'langan bo'laklarda vergulning vazifasi bilan tanishadilar. O'qituvchi ikki gapni o'qib taqqoslash bilan nuqta va vergulda ohangning qanday berilishini ko'rsatadi. Masalan, Biz ona tilimizni sevib o'rganamiz (Gap oxirida ovoz pasayadi, pauza qilinadi). Men, Ra'no, Alisher boshqa tillarni ham sevib o'rganyapmiz (Men, Ra'no, Alisher so'zlaridan so'ng ovoz bir oz pasayadi, xabarning davom etishi seziladi). O'quvchilar uyushiq bo'lakli gap tarkibidagi uyushiq bo'laklarning ammo, lekin, biroq so'zлari bilan bog'langanda vergulning ishlatilishini ham amaliy o'rganadilar. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar har xil mashqlarni ishslash orqali tire va ikki nuqtaning ishlatilishi bilan amaliy tanishadilar. Savod o'rgatish davridayoq o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini vergul, tire, ikki nuqtaning ishlatilishiga qaratadi, matnni o'qiganda bu tinish belgilariga rioya qilishni o'rgatadi. Masalan, Olma, olcha, nok – meva. Kitob – bilim bulog'i. Ona tili darslarida so'zlarni guruhlash mashqlarini bajarganda, o'qituvchi 1-sinf o'quvchilarini tire va ikki nuqtaning qo'yilishi bilan amaliy tanishtiradi. O'qituvchi aniq misollar bilan sanab ko'rsatilgan so'zlardan oldin ikki nuqta qo'yilishini, har bir so'zning vergul bilan ajratilishini ko'rsatadi. Bunda o'quvchilar tinish belgining nomini aytadilar, o'qituvchi eslatmasa ham, ulardan astasekin foydalana boshlaydilar. Matnni yozishdan oldin punktuatsion xatoning ham oldi olinadi. SHunday qilib, o'qituvchi o'quvchilarda punktuatsion ziyraklikni o'stirib boradi. O'quvchilarga tinish belgilarini ishlatish qoidalarini to'la singdirish, ularni tinish belgilarini o'z o'rнida ongli ishlatishga o'rgatish maqsadida sintaktik-punktuatsion tahlil, tinish belgilari tushirib berilgan matnning tegishli tinish belgilarini qo'yish, ta'kidiy eslatish diktanti, bayon va inshoda tinish belgilarining ishlatilishini izohlash kabi mashqlardan foydalaniladi. Ona tili darslarini o'qish darslari bilan bog'lash sintaksis va punktuatsiya elementlari ustida ishslashning metodik shartlaridan biri hisoblanadi. O'quvchilar bu darslarda sintaksis sohasidagi bilimlariga asoslangan holda ifodali o'qish, so'zni aniq ishlatish, o'z fikrlarini grammatic to'g'ri shakllantirishga o'rganadilar. SHunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining gap haqidagi elementar bilimlari og'zaki va yozma nutqda gapdan ongli foydalanishni ta'minlaydi. Ona tili darslarida o'quvchilarni grammatic tushunchalar bilan tanishtirish jarayonida ularda to'g'ri yozuv malakasi ham shakllantiriladi va imlo qoidasini o'zlashtirishga asos solinadi. Imlo qoidalari bir so'znigina emas, balki umumiylilik mavjud bo'lgan butun so'zlar guruhining yozilishini tartibga soladi. Bu xususiyati bilan u qoida xat yozuvchini har bir so'zni yodda saqlash, xotirlashdan qutqaradi va

qoidaga amal qilib, belgilangan me'yorga muvofiq butun so'zlar guruhini yozish imkonini yaratadi. SHuning uchun har bir darsda imlo ustida ishlash muxim vazifa sanaladi. Tushunmagan o'quvchilarga qoshimcha darslar tashkil qilib tushintirish kerak va tinish belgilarining yozuvdagi ahamiyatining juda katta ekanligini har bir darsda eslatib o'tish kerak.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilaridan diktant ishi olayotganida o'zlari mustaqil ravishda tinish belgilarini qo'ya olishi uchun qaysi belgida qanday pauza qilish kerakligini eslatib o'tishi lozim. Ko'pchilik o'quvchilar tinish belgilarini qo'yish vaqtida o'qituvchining har tinish belgi duch kelganida qilinadigan pauzasiga qarab adashib ketishadi, shuning uchun har bir o'qituvchi tinish belgi qo'yiladigan o'rinda pauza qilishni va nuqtada pauza ko'proq bo'lishini vergulda qisqa bo'lishini diktant ishi boshlanmasidan avval takroran tushintirib o'tishi zarur. Xattoki, misollar bilan keltirib o'tilsa, o'quvchilarga yanada osonroq bo'ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva Q va boshqalar " Savod o'rganish darslari", Toshkent, "O'qtuvchi nashiryoti, 1996 yil
2. Abdullaeva Q va boshqalar "Ona tili", Toshkent, "O'qtuvchi" nashiryoti, 1999 yil
3. R.A.Mavlanova, N. Raxmonqulova "Boshlang'ich ta'limning integraciyalashgan pedagogikasi, Toshkent, Ilim-Ziyo 2009 yil
4. Abdullayeva Q va boshqalar "2-sinfda o'qish darslari" Toshkent, 2004 yil
5. R.IKROMOVA, X.G'ULOMOVA,SH. YO'LDOSHEVA, D. SHODMONQULOVA "4-sinf ona tili " darsligi, Toshkent-2017.